



## SHUKUR XOLMIRZAYEVNING YORQIN HAYOTI VA IJODI

**Abdullayeva Risolat Eshonqul qizi**

*Termiz davlat universiteti*

*Ijtimoiy fanlar fakulteti*

*Amaliy psixologiya yo'nalishi III-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Shukur Xolmirzayev hayoti va ijodi, o'zbek adabiyotiga qo'shgan xissasi, asarlari va hikoyalaridagi qahramonlari, bugungi kunda tutgan o'rni haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** O'zbek adabiyoti, Shukur Xolmirzayev, hikoya, to'plam, teatr.

Adabiyot quroli so'z! Aynan so'z orqali hayotni, insonni badiiy talqin qilgan, adabiyot olamida kitobxon mehrini qozongan adib Shukur Xolmirzayevdir. Yozuvchi ijodining alohida xususiyati shundaki, adib milliy hikoya janrini ustoz Abdulla Qahhordan keyin, yangi, yuqori cho'qqiga ko'tardi. Muallifning "Olis yulduzlar ostida", "Hayot abadiy", "Og'ir tosh ko'chsa", "Bodom qishda gulladi", "Tog'larga qor tushdi" kabi hikoyalar to'plamining nashr etilishi o'zbek adabiyotining hikoyachilikdagi katta yutug'idir.

O'zbek adabiyotining zabardast yozuvchisi Shukur Xolmirzayev 1940 – yilning 24 - martida Surxondaryo viloyatining Boysun tumanida tug'ilgan. Bo'lajak yozuvchi 1959-1963–yillarda Toshkent davlat universitetining jurnalistika fakultetida o'qiydi. O'qishni tamomlagach „Yosh gvardiya“ jurnalida muharrir sifatida ishlaydi. Keyinchalik esa Muqimiy nomidagi musiqali drama teatrida adabiy emakdosh sifatida (1967–1969) „Guliston“ va „Sharq yulduzi“ jurnallarida adabiy xodim, bo'lim mudiri sifatida (1969–1980) ishlab kelgan. Xolmirzayevning dastlabki hikoya va ocherklari 1958 yildan nashr etila boshlagan. Xolmirzayev ijodining ilk davridayoq hikoya bilan bir qatorda qissa janrida ham kalam tebratib, „Oq oti“ (1962), „To'lqinlar“ (1963), „Un sakkizga kirmagan kim bor?“ (1965) qissalarini yaratdi. Bu asarlar 60-yillardagi o'zbek qissalarining eng yaxshi namunalaridan bo'lib qoldi. Yozuvchining shu davrda yozgan hikoyalari keyinchalik „Olis yulduzlar ostida“ (1971), „Hayot abadiy“ (1974), „Og'ir tosh ko'chsa...“ (1980), „Yo'llar, yo'ldoshlar“ (1984), „Bodom qishda gulladi“ (1986), „Tog'larga qor tushdi“ (1987) singari to'plamlaridan o'rin oldi. Xolmirzayevning hikoya va qissalarida, bir tomondan, yoshlik va talabalik yillarining o'ziga xos romantikasi ifodalangan bo'lsa, ikkinchi tomondan, yozuvchi tug'ilib o'sgan Boysun tumanida yashovchi turfa tabiatli kishilar hayoti, jamiyatda va ular ruhiy olamida kechgan kurash va o'zgarishlar o'zining badiiy talqinini topdi. Keyinchalik Boysun va boysunliklar



hayoti Xolmirzayev ijodining asosiy mavzusi darajasiga ko'tarilib, yozuvchi ijodida realistik tasvirning ustuvor yo'nalishga aylanishida muhim omil bo'ldi.

Shukur Xolmirzayev haqiqiy, professional yozuvchi edi. Ayniqsa, yozuvchining insonga umr va uning mazmuni haqida chuqur mushohada yuritish imkonini beradigan "Odam" hikoyasi juda ta'sirli. Bejiz yozuvchi bu asarni " falsafiy hikoya" deb nomlamagan . Hikoyada Rahima ismli ayolning hayoti, kechmish - kechinmalari qalamga olinadi. Rahima onasi vafotidan so'ng o'zi xohlamagan Shodmon polvonga turmushga chiqadi. Oradan to'rt yil o'tib inqilob boshlanadi, shu orada turmush o'rtog'i vafot etadi. Rahima uchta bolasi bilan beva qoladi . U el qatori kolxozga kiradi va uning faol a'zosiga aylanadi . "Qizillar kelyapti" degan ovoza tarqalib, odamlar bilan tog'ga qochadi. Kichik farzandi tog'da ochlikdan o'lib ketadi.

Har qanday asar hajman kichik yoki katta bo'lishidan qat'iy nazar mukammal xarakterlari , xotiraga muhrlanib qoladigan betakror epizodlari bilan adabiyot maydonida voqea bo'ladi, ya'ni umrboqiylik maqomiga erishadi. Shukur Xolmirzayev ana shunday maqomga erishgan hikoyalaridan biri " Tanholik" dir. Hikoyada bashariyat murabbiylaridan biri, "o'n to'qqizinchi asrning eng murakkab shaxslaridan biri" L.N. Tolstoy haqida. Asarda ulug' adibning umr so'ngidagi alamli o'ylari, iztiroblari, falsafasi-yu donishmandligi mohirona tasvirlangan. Inson shaxsi uning taniga emas, ruhiyatiga taalluqlidir. Hikoyani o'qib Shukur Xolmirzayev va Tolstoy o'rtasida ruhiy yaqinlikni ko'rish mumkin. Adabiyotshunos Normat Yo'ldoshev aytganidek, Shukur Xolmirzayev ham shaxsiyati butun ijodkor edi.

Shukur Xolmirzayev yozuvchilar orasida birinchilardan bo'lib o'zbek xalqi tarixining «bosmachilik harakati» deb atab kelingan davrini o'rgana boshladi. Yozuvchining «Qil ko'prik» romani va «Qora kamar» (1987) pesasida shu mavzu o'z ifodasini topdi. Ularda adashgan kishilar fojiasi obrazlarda yorqin gavdalantirilgan. Shukur Xolmirzayev pesasi asosida Abror Hidoyatov nomidagi Yoshlar teatrida sahnalashtirilgan «Qora kamar» spektakli yosh avlodda tarixiy o'tmishga yangicha yondashish maylining paydo bo'lishida muhim rol o'ynadi. Shukur Xolmirzayev ing o'zbek xotin-qizlarining sho'ro davridagi fojiali taqdiriga bag'ishlangan «Ziyofat» pesasi ham Yoshlar teatrida sahnalashtirilgan (1990).

#### Adabiyotlar:

1. Tavaldiyeva G. Sh. Xolmirzayev hikoyalarida inson va tabiat munosabatlarining badiiy talqini. 2020.
2. Xolmirzaev. Sh. Komil inson orzusi yoxud adabiyotning ibrat yaratish ma'suliyati. O'zAS 2001
3. Sh. Xolmirzayev " Saylanma" Toshkent. Ma'naviyat nashriyoti 2003 yil.





4. N. Erkayeva. " Shukur Xolmirzayev haqida" Toshkent. Ma'naviyat nashriyoti 2001 yil.
5. Akhmedova, A. T. (2023). THE ESSENCE OF SOCIAL ENTREPRENEURSHIP AND THE ROLE IN SOCIETY. *Miasto Przyszłości*, 42, 364-366.
6. Akhmedova, A. T. (2023). IMPACT OF BUSINESS ACTIVITY ON THE FINANCIAL RESULTS OF THE ENTERPRISE. *World of Scientific news in Science*, 1(1), 161-165.
7. Akhmedova, A. T., & Rasulovich, Z. J. (2023). PROBLEMS OF A COMBINED INSURANCE POLICY CIVIL LIABILITY. *EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY*, 3(12), 118-120.
8. Ахмедова, А. Т. (2023). ВЛИЯНИЕ ФИНАНСОВОГО МЕХАНИЗМА НА ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МАЛОГО БИЗНЕСА И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОГО СУБЪЕКТА. " Экономика и туризм" международный научно-инновационной журнал, 5(13).
9. Rasulovich, Z. J., & Akhmedova, A. T. (2022). Trends in the Economic Condition in the Conditions of the Recovery of Economic Activity. *International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development*, 4(4), 57-60.
10. Akhmedova, A. T. (2021). Innovative strategic system management of the enterprise. *Academic Journal of Digital Economics and Stability*, 10, 52-55.

